"Yashil" sanoat siyosatini yuritish zaruriyati: bozor nuqsonlaridan milliy xavfsizlikkacha.....	1100
Muqimov Sherali Axmadali o'g'li	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holati tahlili va rivojlantirish istiqbollari.....	1105
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
Improving the Methodology of Econometric Analysis of the Efficiency of Financial Activity of Agricultural Agroclusters of Uzbekistan.....	1110
Ochilov Ilhom Sayitkulovich	



O'zbekistonda "Yashil" iqtisodiyotga o'tish va "Uglerod neytralligiga erishish" strategiyalarining ahamiyati	1118
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li, Bazarov Shodi Abdirahmonovich	
Oziq-ovqat mahsulotlari brend qiymatini oshirishda marketing strategiyalari.....	1125
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
Актуальные вопросы укрепления доверия населения к банковской системы Республики Узбекистан	1131
Рузибоева Нилуфар Тулкин кизи	
Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun mintaqaviy siyosat vositalarining xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1137
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mintaqa korxonalarining rivojlanish potensialini shakllantirishda innovatsion marketingning o'rni va mohiyati.....	1144
Axmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tokomillashtirish yo'llari.....	1148
Samandarova Dilfuza Mansurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini mavjud muammolar va yechimlar.....	1155
Fatilloev Farrux Farhod o'g'li	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'iga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning iqtisodiy-statistik tahlili.....	1160
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1169
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1174
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1179
Mavlanov G'olibjon Muxammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1184
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1188
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1191
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1196
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1201
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1205
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish	1210
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1215
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1221
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1225
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1229
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1233
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1239
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1247
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	



Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1252
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
О'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1256
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1263
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1268
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1274
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1279
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	1283
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1286
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'-moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1291
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari	1296
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1302
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi	1307
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1312
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1317
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish	1322
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1326
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1331
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1335
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi" ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1339
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	
Improving the Participation of Joint-Stock Companies in the Capital Market.....	1345
Muminov Shohjahon Suyun ugli	
Mamlakatimizda atrof-muhitni himoyalashga ixtisoslashgan ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish shakllari.....	1349
Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
Mahalliy farmatsevtika mahsulotlari bozori va iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari.....	1355
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
Soliq va buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy vositalar hisobining dolzarb masalalari	1361
Arifxanova Xabiba Shuxratovna	
Institutsional islohotlar sharoitida mamlakatni moliyaviy-iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	1367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Ermo'minov Iskandar Ziyodillayevich	
Mehmonxonalarda xizmat sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari.....	1372
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Resurslar yetishmaydigan hududning investitsion jozibadorligini shakllantirishning uslubiy asoslari.....	1377
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	



Jahon moliyaviy arxitekturasi va xalqaro moliya tizimini isloh qilish yo'nalishlari.....	1383
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Karimov G'ayratjon Toxir o'g'li	
“O'zneftgaz” AK tizimidagi korxonalarda joriy aktivlarning sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sirini perespektiv tahlili.....	1388
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Oliy ta'lim tizimi boshqaruvi samaradorligini baholashda sifat menejmenti va uning konseptual asoslari.....	1394
Teshayev Hotamjon Ixtiyor o'g'li, Boltayeva Mohichehra Sharipovna	
“Xufiyona iqtisodiyot”ning jamiyatga ta'siri.....	1399
Mirzayev Zarshed Mirzayevich, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Kichik va o'rta biznes subyektlarini tadbirkorlik qobiliyatini baholashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari...	1402
Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari	1406
Beknazarova Nilufar Tulkinovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning o'rni.....	1409
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna	
Tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayoni, undagi muammolar va ularni yechish yo'llari	1413
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
Oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari va natijalari.....	1419
Umarova Xilola Uktamovna	
Korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning afzallik va kamchiliklari.....	1428
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li	
Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi	1432
Raxmonov G'ayrat Ismatulloevich	
Katta ma'lumotlar (BigData) davrida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni tahlil qilish.....	1436
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Umarova Go'zal Sabirovna	
Investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	1439
Isakov J. Ya.	
Цифровизация страховой сферы в Республике Узбекистан.....	1446
Шерматовна Ирода Ойбековна	
Agritourism development in Uzbekistan: insights from science and literature.....	1450
Aktamov Olimjon Abdugani ugli	
Управление хозяйственной деятельностью торговых предприятий.....	1454
Юлдашева Гульмира Азатовна, Зияев Дилшоджон	
Davlatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari	1459
Xamrayev Olimjon Yaxshiboyevich	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	1466
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Turizm sohasida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni baholash masalalari.....	1470
Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna	
Zamonaviy marketing boshqaruvida marketing konsepsiyalarining o'rni hamda dolzarbligi	1476
Sherali Mamatqobilov	
Основные тенденции развития налоговой системы республики узбекистан на современном этапе	1482
Умида Юлдашева	
Tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda xorij tajribasi.....	1487
Sattorova Nasiba G'anijon qizi	



TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI

Sattorova Nasiba G'anjon qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bank ishi va investitsiyalar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda xorij tajribasini joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar aniqlangan hamda ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: likvidlikni boshqarish, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, me'yoriy-huquqiy baza, likvidlik riskini boshqarish, bank sektorining barqarorligi.

Abstract: In this research relevant problems in implementation of foreign experience in maintaining the liquidity of the commercial banks are revealed and also the suggestions of their resolving are proposed.

Key words: liquidity management, commercial banks, financial stability, regulatory framework, liquidity risk management, stability of banking sector.

Аннотация: В статье выявлены актуальные проблемы, связанные с внедрением зарубежного опыта в сфере обеспечения ликвидности коммерческих банков, а также разработаны научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: управление ликвидностью, коммерческие банки, финансовая устойчивость, нормативно-правовая база, управление риском ликвидности, стабильность банковского сектора.

KIRISH

Banklarning faoliyatiga miqdoriy baho beruvchi, ishonchligini ta'minlovchi va uning faoliyatiga aniq tashxis qo'yuvchi vositalaridan biri bu – bankning likvidligi hisoblanadi. Bankning barqaror rivojlanishi uning likvidlik darajasining ta'minlanishini talab etadi. Bank likvidligi nafaqat bankning barcha kontragentlari oldidagi moliyaviy va qarz majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash imkoniyatini beradi, balki bank kontragentlarining kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini ham ta'minlanishini belgilab beradi. Tijorat banklarining o'z funktsiyalarini to'laqonli bajara olish imkoniyati, birinchi navbatda, ularni yetarli darajada likvidli bo'lishi bilan belgilanadi. Shu sababli, tijorat banklarining likvidligi masalasi bank nazorati hamda tijorat banklari aktivlari va passivlarini boshqarishning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimi aktivlarining jami hajmida davlat ulushi bo'lmagan banklar aktivlari hissasini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish, banklar majburiyatlarining umumiy hajmida xususiy sektor oldidagi majburiyatlar hissasini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish, 2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitaliga zarur tajriba, bilim va nufuzga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish ko'zda tutilgan[1].

Ayni vaqtda, Respublikamiz tijorat banklarining likvidligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolarning (tijorat banklarida aktivlarning rentabellik darajasini past ekanligi, davlat tijorat banklarida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarini ushbu ko'rsatkichning me'yoriy darajasidan yuqori ekanligi va boshqalar) mavjudligini e'tirof etish joiz.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. N.Semenova, I.Ivanova, A.Vasilkinalar "Barqarorlik – bu bankning butun rivojlanish davri davomidagi holatining sifat ko'rsatkichi bo'lib, tashqi va ichki muhitning o'zgaruvchan omillari sharoitida muvozanatda bo'lish va o'ziga xos funktsiyalarini uzluksiz bajara olishi imkoniyati" degan xulosaga kelganlar[2].

AQShlik iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o'rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta'minlashga qaratilishi lozim, deb hisoblaydi [3].

AQSh FZTda diskont siyosati monetar siyosatning eng muhim vositalaridan (instrumentlaridan) biri hisoblanar ekan, uning ta'sirida AQSh FZT oldiga qo'yilgan bosh maqsad – maksimal darajada ish joylarini yara-



tishga ko'maklashish, barqaror narx siyosatini yuritish va uzoq muddatli mo'tadil foiz stavkasini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimini muvofiqlashtirishga erishishdan iborat. Ushbu instrument asosan taklif omili sifatida Federal zaxira fondining muvozanatli holatini ta'minlashga hamda iqtisodiyotga pul va kreditlar taklif qilishga o'z ta'sirini ko'rsatishga yo'naltirilgandir.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak. Bugungi kunda Respublikamiz tijorat banklarida bu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'lsada, ekspertlarning tavsiyasiga yaqinlashtirish lozim.

A. Mian va A. Safining xulosasiga ko'ra, uy xo'jaliklarining o'z risklarini nazorat qilish imkoniyatlarini firmalarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklanganligi bois ularga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytmaslik ehtimoli yuqoridir[4].

M. Gorsky, E.Reshulskayalar kengaytirilgan ma'noda "moliyaviy barqarorlik" – bankning to'plangan likvidligi va o'z kapitali bo'yicha moliyaviy-iqtisodiy holatining xarakteristikasi, makroiqtisodiy sharoitlarda kreditlash va investitsiya faoliyati sohasida beqarorlik va tashqi (tartibga soluvchi organ tomonidan belgilanadigan) va ichki (bankning kredit strategiyasi bilan belgilanadigan) standartlarni hisobga olgan holda moliyaviy natijaning saqlanishi va o'sishini ta'minlaydi[5] deya ta'kidlaydi.

Yo. Muxmudaliyeva "bank tizimi barqarorligi bu Markaziy va tijorat banklari faoliyati davomida o'z funksiyalarini to'laqonli bajara olishini ta'minlagan holda, rivojlanishga intilishdir" degan fikrga kelgan[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklari likvidligini boshqarish siyosatini nazariy asoslari va amaliy jihatlarni o'rganish, tahlil qilish, bankning oltin qoidasidan kelib chiqib, tijorat banklari aktivlari va majburiyatlarining muvofiqligini hamda uning likvidlikka ta'sirini o'rganish, shuningdek uni takomillashtirish borasida ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

TADQIQOT NATIJALAR

FZT amaliyotida Federal ochiq bozor qo'mitasi – FOBQ (Federal Open Market Committee – FOMC) faoliyat yuritib, u asosan zaxira talablari va federal fond foiz stavkalarini belgilashda hamda ular orqali iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga (pul, kreditlar) bo'lgan talab va taklifini muvofiqlashtirishda muhim institut hisoblanadi. Mazkur institut diskont stavkasini belgilashda bevosita vakolatli hisoblanmasada, ammo uni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Uning xulosa va takliflari AQSh FZB Direktorlar Kengashi tomonidan o'rganilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

1-jadval. AQShda YaIMning yillik o'sish sur'ati, inflyatsiyaning yillik darajasi va Federal zaxira tizimining diskont stavkasi foizda[7].

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024 1-chorak
YaIMning o'sish sur'ati	- 2.2	5.8	1.9	2.5	1.6
Inflyatsiya darajasi	1.25	4,7	8	4.5	2.3
Federal zaxira tizimining diskont stavkasi	0,25	0,75	2.2	4.5	5.2

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2020–2024- yillarda AQSh YaIMning o'sish sur'atini pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Ammo, 2021-yilda YaIMning o'sish sur'ati 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

2020-yilda koronavirus pandemiyasi sababli AQSh va jahon iqtisodiyoti o'sishining sekinlashganligi. 2022–2024-yillarda AQShda inflyatsiyaning yillik darajasi mo'tadil bo'lgan, ya'ni inflyatsiyaning yillik darajasi 3 foizdan oshmagan. Bu esa, pullar taklifini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. 2024-yilning birinchi chorak ma'lumotlaridan ko'riib turibdiki, inflyatsiya ko'rsatkichi 2023-yilga nisbatan sezilarli pasaygan, lekin Federal zaxira tizimining diskont stavkasi oshirilgan bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa inflyatsiyani jilovlab turishdan iborat.



2-jadval. AQSh bank amaliyotida ssudalarni berish bo'yicha vakolatlar[7].

Ssudalar limiti	Ta'minlangan ssudalar	Ta'minlanmagan ssudalar va overdraftlar	Insayderlarga beriladigan ssudalar	Bank xodimlariga beriladigan ssudalar
Ssudalarning qonunchilik hujjatlarida belgilangan yuqori limiti	Bankning ssuda qo'mitasi	Bankning ssuda qo'mitasi		
5 mln. AQSh dollari	Mintaqaviy ssuda qo'mitasi va ikkita mintaqaviy prezident	Mintaqaviy ssuda qo'mitasi va ikkita mintaqaviy prezident	Bankning direktorlari kengashi	Ijro qo'mitasi
2 mln. AQSh dollari	Mintaqaviy ssuda qo'mitalar	Mintaqaviy ssuda qo'mitalar		
500 ming AQSh dollari	Mintaqaviy prezidentlar	Mintaqaviy prezidentlar		
250 ming AQSh dollari	Kredit inspektorlari	Kredit inspektorlari		

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ssuda summasi ko'payib borishi bilan mintaqaviy prezidentlari vakolat doirasi torayib, ssuda qo'mitalarining vakolat doirasi kengayadi. Summasi 5 mln AQSh dollariga teng bo'lgan ssudalar berish to'g'risidagi qaror mintaqaviy ssuda qo'mitalari tomonidan qabul qilinadi. Summasi 250 ming AQSh dollari bo'lgan ssudalari berish masalasini kredit inspektorlari hal

qiladi. Insayderlarga ssudalar berish masalasi bankning direktorlar kengashi tomonidan qabul qilinadi. Buning sababi shundaki, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan samarali bank nazoratlari prinsiplari ko'ra, tijorat banki insayderlarga imtiyozli shartlar asosida kreditlar berishga haqli emas. Shuning uchun direktorlar kengashi insayderlarga beriladigan har qanday summadagi kreditlarni nazorat qilishga majbur. AQShda tijorat banklari aktivlarining sifatini baholashda Markaziy bank "CAMELS" reyting tizimidan foydalanadi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari likvidligini ta'minlash, uni talab darajasida oshirish, va shu bilan birgalikda, kutilayotgan daromadga ega bo'lish kuchli likvidlik strategiyasini talab etadi, ya'ni tijorat banki bir vaqtning o'zida likvidlikka erishgan holda maksimal daromad olishning samarali pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim.

Taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotida tijorat banklari qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish orqali joriy likvidligini ta'minlaydi va daromadlari miqdorini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Transmilliy banklarning sof foizli daromadning yuqori va barqaror darajasini ta'minlash, regulyativ kapitalning passivlar hajmidagi salmog'ining barqarorligini ta'minlash va qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning brutto aktivlar hajmidagi yuqori va barqaror darajasini ta'minlash yo'li bilan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasidagi tajribasi O'zbekiston tijorat banklari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadlarining umumiy hajmida foizli daromadlarning salmog'i kamida 70 foiz bo'lishi kerak. Shuni inobatga olib, mamlakatimiz tijorat banklarida ham foizli daromadlarining umumiy hajmida kreditlardan olingan foizli daromadlar salmog'ini yuqori va barqaror bo'lishini ta'minlash lozim.

AQShda overdraft kreditlash bilan bir vaqtning o'zida kontokorrent kreditlash shakli ham rivojlangan. Shu-nisi xarakterliki, kreditlashning kontokorrent shaklida mijozning joriy hisob raqami yopiladi va uning o'rniga kontokorrent hisob raqami ochiladi. Qayta moliyalash stavkasi va majburiy zaxira stavkasining bir vaqtning o'zida pasaytirilishi tijorat banklarining likvidlik darajasini oshishiga va umumiy talabni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Aksincha, mazkur stavkalarining bir vaqtning o'zida pasaytirilishi tijorat banklarining kreditlash imkoniyatini pasaytiradi va umumiy talabning qisqarishiga sabab bo'ladi.

Xorijiy banklar AQSh banklari bilan vakillik munosabatlari o'rnatishda xorijiy bankning overdraft kreditidan foydalanishga ruxsat olishga harakat qilishadi. Buning sababi shundaki, overdraft krediti "Nostro" vakillik hisob raqamida yuzaga keladigan vaqtinchalik valyuta yetishmasligi muammosini hal etishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Xorijiy bank, valyuta mablag'lari yetishmasligi yuzaga kelganda, vakil bankni belgilangan limit doirasida zudlik bilan kreditlaydi. Kredit olgan bankning "Nostro" vakillik hisobraqamiga pul kelib tushishi bilan berilgan overdraft krediti qaytariladi. Muammo shundaki, qator davlatlarda overdraft krediti berish qonun yo'li bilan ta'qiqlangan. Ammo AQShda bunday ta'qiq mavjud emas, aksincha, overdraft usulida kreditlash amaliyoti takomillashgan.



Taraqqiy etgan davlatlar tajribasini tadqiq qilish natijalari ko'rsatdiki, ularda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini belgilashda asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari barqarorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilmoqda. Bu esa, mazkur mamlakatlarda makroiqtisodiy o'sish sur'atlarining past ekanligi, ayrim mamlakatlarda esa, iqtisodiyotning retsessiya holatida ekanligi bilan izohlanadi. Buning ustiga, taraqqiy etgan mamlakatlarda inflyatsiya muammosi mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992- sonli "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni //Qonun hujjatlari.
2. Семенова Н.Н., Иванова И.А., Василкина А.А. Оценка устойчивости развития коммерческого банка на основе метода анализа иерархий. Финансы: теория и практика.
3. Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: "Санкт-Петербург Оркестр", 1994. – С. 90-93.
4. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726.
5. Gorsky M.A., Reshulskaaya E.M. Financial stability of a commercial bank: The phenomenon, indicators and assessment methods. Вестник Алтайской академии экономики и права = Journal of Altai Academy of Economics and Law. 2020; (3–1): 29–39. (In Russ.). DOI: 10.17513/vaael.1012
6. Mahmudaliyeva Yo.A. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va uni baholash. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T., 2001. -22 b.
7. В. М. Усоскин Современный коммерческий банк. Управление и операции. Издательство: Ленанд, 2019. – С. 258
8. <https://www.federalreserve.gov>
9. <http://www.ecb.eu.org.publications>
10. www.worldbank.org
11. <https://doi.org>
12. <https://www.cbu.uz>
13. <https://www.imf.org>
14. <https://www.bankofamerica.com>
15. <https://www.db.com>
16. <https://www.bundesbank.de>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

